

**FERMER XO'JALIKLARINI O'ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTIDA TUTGAN
O'RNI VA ROLI****Nurxonov Nurkomil Qahromon o'g'li***Kadrlar malakasini oshirish va statistic tadqiqotlar instituti**"Makroiqtisodiy statistika va milliy hisoblar" kafedrasи 2-kurs tayanch doktoranti*

O'zbekiston o'zi tanlagan mustaqil taraqqiyot yo'lidan borib, bozor munosabatlari tizimini shakillantirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, islohotlarni yanada chuqurlashtirish, turli soha va tarmoqlar o'rtaida mutanosiblikni ta'minlash vazifalarini amalgalash oshirib kelmoqda. Bozor iqtisodiyotini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida islohotlarni amalgalash oshirish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilganimizda, qishloq xo'jaligi ekinlari ekin maydoni 2021 yilda 3260,7 ming gektarni, 2010 yilda esa 3708,4 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda 2010 yilga nisbatan 447,7 ming gektarga kamaygan. Qishloq xo'jaligi mahsuloti esa 2021 yilda , 302524,9 mlrd. so'mni, 2010 yilda 30856,7 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda 2010 yilga nisbatan 271668,2 mlrd. so'mga oshgan.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimiz Prezidenti boshchiligidagi iqtisodiyotimizda zamonaliviy bozor talablariga muvofiq chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalgalash oshirishni o'z oldiga asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilab oldi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev "Meva-sabzavot, sholichilik, chorvachilik, ipakchilik kabi boshqa tarmoqlarda ham bugungi kun talabiga javob beradigan klasterlarni tashkil etish ishlarini davom ettiramiz.

Bu yil 2 milliard dollarlik, keyingi 5-7 yilda esa 3-4 barobar ko'p meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish uchun mahsulot yetishtirishni keskin ko'paytirish choralarini ko'rish zarur.

Parlamentimiz ushbu islohotlarimizning huquqiy asosi bo'lgan "Kooperatsiya va klasterlar to'g'risida"gi yangi qonunni tezroq qabul qilsa, ushbu katta reja va niyatlarimizga mos ish bo'lur edi.

Bu yil meva-sabzavotchilik, uzumchilik, urug'chilik, chorvachilik, agro-logistikani rivojlantirish, suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlari, soha uchun malakali kadrlarni tayyorlashga 3 trillion so'm mablag' yo'naltiramiz. Chorvachilik, qorako'lchilik, baliqchilik, parrandachilik kabi sohalarda naslchilikka alohida e'tibor qaratilib, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari tatbiq etiladi"^[1]- deb ta'kidlab o'tgan edi. Darhaqiqat mamlakatning jahon xo'jaligi tizimiga faol kirib borishi iqtisodiyoning ochiqligini kengaytirish va erkinlashtirishning tarkibiy islohotlar muammosiga alohida ahamiyat berilishini taqozo etadi. Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida iqtisodiyotning tarkibiy jihatidan o'zgartirish dasturining bajarilishini ta'minlash, korxonalarini texnik jihatdan qayta jihozlash va modernizatsiyalash, ishlab chiqarish tizimlarini bunyod etishga o'ta muhim masala sifatida qarash zarurligi davr talabidir.

Fermer xo'jaligi tadbirkorlik faoliyatining sub'ekti sifatida qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan bir qator huquqlarga ega:

- ishlab chiqarish faoliyatini o'ziga berilgan yer uchastkasiga ustavda nazarda tutilgan doiradi mustaqil tashkil etish;
 - yetishtirilayotgan va realizatsiya qilinayotgan mahsulotga mustaqil ravishda narx belgilash;
 - yetishtirilayotgan va realizatsiya qilinayotgan mahsulotga mustaqil ravishda narx belgilash;
 - o'zi yetishtirgan mahsuloti, shu jumladan bu mahsulotni iste'molchilarga o'z hohishi bo'yicha realizatsiya qilish huquqini tasarruf etish;
 - tadbirkorlikdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq solinadigan, cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;
 - ijara beruvchining ruxsati bilan yoki qonunga ijara shartnomasida nazarda tutilgan hollarda yer uchastkasini ijara berish huquqini kredit olish uchun garovga qo'yish;
 - kichik korxonalar uchun berilgan imtiyozlarning barcha turlaridan foydalanish;
 - xodimlarni ishga yollash va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qilish.
- Shu bilan birga fermer xo'jaligi o'z zimmasiga muayyan bir majburiyatlarni oladi:**
- ijara olingan yer uchastkasini bir yil ichida o'zlashtirish, undan qat'iy belgilangan maqsadda foydalanish va unga zarar yetkazmaslik;
 - yer uchastkasini asrash, uning unumidorligini saqlash va oshirish yuzasidan sarf xarajatlar qilish;
 - agrotexnika talablariga, belgilangan rejim, saqlash vazifasi va servitutlarga rioya etish;
 - fermer xo'jaligining majburiyatlari va qarzları bo'yicha to'la javobgar bo'lish;
 - fermer xo'jaligining a'zolari hamda mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan shaxslarning mhnat faoliyati hisobini yuritish.
- Fermer xo'jaliklarini tuzishning quyidagi shakllari mavjud:
1. Maxsus respublika fondidagi, mehnat resurslari yetarli bo'limgan va yangi sug'oriladigan mavzulardagi yerlar hamda zahira yerlarda maxsus davlat yer fondini shakllantirish orqali fermer xo'jaliklarini tuzish.
 2. Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari)ning yerlarida a'zolarining ixtiyoriy asosida kooperativ (shirkat)dan chiqib fermer xo'jaligi tuzish uchun bergan arizasiga binoan umumiylajmis qarori bilan ajratiladigan yerlarda fermer xo'jaliklari tuzish.
 3. Surunkasiga zarar ko'rib kelayotgan istiqbolsiz yoki rentabelli xo'jaliklarni hokimliklarning tavsiyasi asosida Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida qayta tashkil etib, to'lig'iga fermer xo'jaliklariga (uyushmaga a'zo bo'lgan holda) aylantirish.
- O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning tarkibi tahlil qilganimizda jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2021 yilda fermer xo'jaliklarida 29,2 % ni, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 65,% ni, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalgalashuvchi tashkilotlarda esa 4,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda fermer xo'jaliklarida 5,5 % ni, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 66,7 % ni, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalgalashuvchi tashkilotlarda esa 27,8 % ni tashkil etgan.
- Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida 479 ta qishloq va ovulda, shaharlardagi 116 ta mahallada keng ko'lamlı qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Bunga 6,1 trillion so'm yoki 2018 yilga nisbatan 1,5 trillion so'm ko'p mablag' sarflandi.

Qishloq joylarda – 17 ming 100 ta, shaharlarda – 17 ming 600 ta, jami 34 ming 700 ta yoki 2016 yilga nisbatan salkam 3 barobar ko‘p arzon va shinam uylar qurildi.

Kam ta’minlangan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj 5 mingta oilaga, jumladan, nogironligi bo’lgan ayollarga ipoteka krediti asosida arzon uy-joy sotib olish uchun 116 milliard so‘mdan ziyod boshlang‘ich badal to‘lab berildi.”[1]- deb ta’kidlab o’tdilar.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda fermer xo‘jaliklarining faoliyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish, iqtisodiy qo’llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish bilan bog‘liqdir. Chunki iqtisodiy qo’llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqarish darajasi qanchalik yuqori bo‘lishi: bu **birinchidan**, mamlakatimizda fermer xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘lamini kengayishiga, **ikkinchidan** aholining turmush sharoitini oshirishga, **uchinchidan** mamlakatimizning eksport salohiyatini yuksaltirishga imkon beradi. Chunki respublikaning alohida mintaqa va hududlarida fermer xo‘jaliklarini iqtisodiy qo’llab-quvvatlash mexanizmlariga bo‘lgan talab bir xilda emas. Bu talabni to‘laroq qondirish, **birinchidan**, ilg‘or texnologiya va malakali kadrlarga bog‘liq bo‘lsa, **ikkinchidan**, xom ashyo va tayyor mahsulotlarning yaxshi saqlanishi uchun muayyan joylar, qayta ishlovchi quvvatlar hamda mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazib berishda transport vositalaridan oqilona foydalanishga qaratilgan. Umuman olganda, respublikamizda fermer xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish jahon bozorida O‘zbekiston iqtisodiyotiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi. Shu sababli ham, respublikada fermer xo‘jaliklarini iqtisodiy qo’llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqishni rivojlantirish va yangi usullarini ishlab chiqish iqtisodiy soha strategiyasi masalalariga javob topish, iqtisodiy taraqqiyotning barqaror rivojlanishiga erishish uchun shart-sharoitlar yaratish zarur ekanligini ko‘rsatmoqda.

Bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida qishloq xo‘jaligi fermer xo‘jaliklarilarini isloh qilish va shu asosda dehqon mehnatining nufuzini oshirish qishloq xo‘jaligini sifat jixatdan yangi asoslarda qayta tiklash, oziq-ovqat muammosini xal etish, mamlakatimiz qishloq, joylarida qulay ish hamda turmush sharoitlarini ta’minlash eng asosiy masalalaridan biri bo‘lib belgilangan.

Fermer xo‘jaligi faoliyati o‘ziga xos xususiyatlari bilan korxona, mikrofirmalardan keskin farq qiladi. Bu xususiyatlarning asosiylari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Fermer xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish jarayoni tabiiy jarayonlar bilan uzviy bog‘lanib ketgan. Bu mulkchilik shaklida mahsulot ishlab chiqarish nafaqat mehnat hisobiga, shu bilan bir qatorda tirik organizmlarni mustaqil rivojlanishi hisobiga ham yuzaga keladi. Shuning uchun fermer xo‘jaligida yer maydonlari, o‘simpliklar, hayvonlar to‘plami mavjud. Natijada yer maydonlari, o‘simpliklar va chorva mollari statistik ko‘rsatkichlari bilan to‘ldiriladi, kengaytiriladi.

2. Fermer xo‘jaligida ishlab chiqarishning asosiy omili bo‘lib yer hisoblanadi. Yer fermer xo‘jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasidir. U ishlab chiqarish vositasi sifatida chegaralangan, uni ko‘paytirish, qayta ishlab chiqarish imkoniyati yo‘q. Shuning uchun yerning fiziologik xususiyatlarini hisobga olib, ishlab chiqarish jarayonini shunday tashkil etish lozimki, natijada yerning unumдорлиги kamaymasin, balki oshib borsin. Ushbu xususiyat yer va undan foydalanish ko‘rsatkichlarining shakllanishida ma’lum darajada ta’sir qiladi.

3. Fermer xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonining asosiy xususiyatlaridan biri – mavsumiyligidir. Ishlab chiqarish jarayonini bosqichlari tartib bilan qat’iy ketma-ketlikda bajarilishi lozim.

FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // "Халқ сўзи" газетаси, 2020 йил 25 январь, № 19 (7521). .

2. Rasulev D., Nurullayeva Sh., Ro'zmetova N., Muminova M. Biznes-jarayonlarini modellashtirish: O'quv qo'llamma. - T.: IQTISODIYOT, 2019. - 175 bet.

3. Маматкулов Б.Х.. Фермер хўжаликларида чорвачилик маҳсулотлари етиширишни ривожлантириш - камбағалликни қисқартиришнинг устувор йўналишларидан биридир // Иқтисодиёт ва таълим. ТДИУ. Т., 2021. №1 – 70-79 бет.

4. www.stat.uz- (O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi sayti) .

5. www.gov.uz - (O'zbekiston Respublikasi xukumiat portalı) .

6. www.http://el.tfi.uz/pdf/mddj22.uzk.pdf - (Toshkent moliya instituti electron kutubxonasi)